

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**RAXMONOV SARDORJON SODIQJONOVICH**

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI O‘TASH JARAYONINI TARTIBGA  
SOLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Raxmonov Sardorjon SODIQJONOVICH**

Davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....3

**Rakhmonov Sardorjon SODIQJONOVICH**

Organizational and legal basis for regulating the process of passing the state civil service.....27

**Рахмонов Сардоржон Содикжонович**

Организационно-правовые основы регулирования процесса прохождения государственной гражданской службы.....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**RAXMONOV SARDORJON SODIQJONOVICH**

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI O‘TASH JARAYONINI TARTIBGA  
SOLISHNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu932 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/автореферат/>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yusupov Sardorbek Bahodirovich**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirov Bobiromon Bekmurodovich**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Karligash Umarova XXX**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi huzuridagi  
Parlament tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_”-\_\_\_\_\_ soat \_\_: \_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch. Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78, email: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch. Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_”-\_\_\_\_\_da tarqatildi.

(2025-yil “\_\_”-\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**P**

**Y.D. Kutibayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M. Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**Z.A. Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini huquqiy tartibga solish, jumladan, davlat fuqarolik xizmatiga kirishda teng imkoniyatlar yaratish, davlat fuqarolik xizmatchisiga martaba darajasini berish, ularni attestatsiyadan o'tkazishning zamonaviy tizimini yaratishga katta urg'u berilmoqda. Ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlarning kadrlar bo'limini Inson resurslarini boshqarish tarkibiy bo'linmasiga (HR-xizmat) to'liq transformatsiya qilish, inson resurslari tahlilchisi (HR-analyst), xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'yicha menejer (Employee training and development manager), inson resurslari bo'yicha maslahatchi (HR-consultant) va HR-manager lavozimlarini kiritishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimini zamonaviy xalqaro standartlar doirasida isloh qilish natijasida O'zbekistonning ham davlat xizmati sohasida xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga erishilmoqda. Xususan, mamlakatimiz "Hukumat samaradorligi" (Government effectiveness) indeksida 2021-yilda 2020-yildagi 124-o'ringan 104-o'ringa yuqoriladi<sup>1</sup>.

Jahonda davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini huquqiy tartibga solishda xizmat shartnomasining huquqiy tabiatiga aniqlik kiritish, davlat fuqarolik xizmatini o'tash prinsiplarini belgilash, davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashning zamonaviy standartlarini joriy qilishga ustuvorlik berilmoqda. Inson resurslari bo'linmalari faoliyatini raqamlashtirish orqali ish yurituv jarayonlarini optimallashtirish hamda mazkur vaqtda yangi xodimlarni izlab topish, amaldagi xodimlarni rivojlantirish hamda ular faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirish, davlat fuqarolik xizmatida martaba darajasini berish va attestatsiya tizimini takomillashtirish davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimining eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini tartibga solish har qachongidan dolzarbdir. Jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasi<sup>2</sup>da davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish nazarda tutilgan bo'lib, mazkur maqsadga erishishda davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu borada "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan davlat fuqarolik xizmati tizimini to'liq ishga tushirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining uzluksiz malaka oshirib borishi tizimini joriy etish, tizimni to'liq raqamlashtirish, milliy kadrlar zaxirasi tizimining huquqiy asoslarini belgilash va samarali mexanizmini yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son Farmoni (2017), "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-son Qarori (2019) va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni (2023) hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy

<sup>1</sup> [https://www.theglobaleconomy.com/rankings/wb\\_government\\_effectiveness/](https://www.theglobaleconomy.com/rankings/wb_government_effectiveness/)

<sup>2</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlari X. Azizov, X. Alimov, Sh. Ismoilov, F. Maxmudov, B. Mirboboyev, J. Nematov, N. Said-Gaziyeva, X. Xayitov, R. Xakimov, I. Xamedov, E. Xojiyev, O. Xusanov, S. Yusupov, F. Isayeva, F. Yuldasheva va boshqalar<sup>1</sup> tomonidan davlat fuqarolik xizmati bo‘yicha yozgan o‘quv-uslubiy va ilmiy tushdagi ishlarida davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimining ayrim jihatlari tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlarda davlat xizmatida rag‘batlantirishning ayrim jihatlari J. Perri, G. Boyne, S. Pan, J. Sigel, S. Xorton, T. Glen, G. Breban kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, MDH mamlakatlarida Y. Starilov, A. Ulyanova, G. Petrov, D. Baxrax, Y. Tixomirov, V. Manoxin, I. Surmanidze, A. Nozdrachev, P. Sergun A. Kurakin, D. Minnigulova, Y. Litvinseva, V. Gaydov, V. Kozbanenko va boshqa olimlar<sup>2</sup> tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – davlat fuqarolik xizmatini o‘tash jarayonining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tushunchasi va uning yuridik tabiatini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash prinsiplarini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash jarayonini huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq qilish;

davlat fuqarolik xizmatida martaba darajasini berishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibotini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatini o‘tashning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq

<sup>1</sup> Mazkur ilmiy ishlarning to‘liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

<sup>2</sup> Mazkur ilmiy ishlarning to‘liq nomi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** davlat fuqarolik xizmatini o‘tashga oid milliy, xalqaro va xorij mamlakatlaridagi huquq normalarining rivojlanish yo‘nalishlari, ularni qo‘llash amaliyoti hamda nomoddiy rag‘batlantirishga oid ilmiy-nazariy qarash va yondashuvlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatida lavozim bo‘yicha ko‘tarilish, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish va davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to‘lashning yagona tartibini belgilash kabilar davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimiga kirishi lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi darajasi uning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash imkonini beruvchi axborot tizimlari orqali davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab borilishi lozimligi asoslangan;

davlat xizmatchilari xizmat faoliyati davomida o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste‘molchilikka yo‘l qo‘ymaslik lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi – ommaviy bayonot matni va mazmuni davlat siyosati yoki davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador bo‘lmasa, ommaviy bayonot berishi mumkin emasligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

“davlat fuqarolik xizmatini o‘tash”, “lavozim”, “davlat fuqarolik xizmatini o‘tash jarayoni”, “xizmat shartnomasi”, “davlat fuqarolik xizmatida martaba darajasi”, “davlat fuqarolik xizmatida attestatsiya” kabi tushunchalarga mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash jarayonini tartibga soladigan munosabatlarning mazmuni asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash munosabatlarini ma‘muriy huquq nuqtayi nazaridan huquqiy tartibga solish lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash munosabatlari xizmat shartnomasi asosida tartibga solinishi lozimligi asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari qatoriga vatanparvarlik prinsipini kiritish lozimligi asoslangan;

mamlakatimizda Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozimligi asoslantirib berilgan;

davlat fuqarolik xizmati tashkilotlarida ochiq tanlov o‘tkazish, davlat fuqarolik xizmatchilariga martaba darajalarini berish va davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomlar ishlab chiqilishi lozimligi asoslantirilgan;

davlat organlari va tashkilotlarning kadrlar bo‘limini Inson resurslarini boshqarish tarkibiy bo‘linmasiga (HR-xizmat) to‘liq transformatsiya qilish lozimligi asoslantirilib, bu borada qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab

chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xorijiy va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rganildi, ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilindi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ma‘muriy huquq sohasida tadqiqot ishlarini olib borishda, Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq va Ma‘muriy huquq kabi fanlarni o‘qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

davlat fuqarolik xizmatida lavozim bo‘yicha ko‘tarilish, davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to‘lashning yagona tartibini belgilash kabilar davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimiga kirishiga oid taklifdan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 33-moddasi ikkinchi qismi to‘rtinchi, oltinchi va yettinchi xatboshilarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 18-oktabrdagi 02-08-378-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatini o‘tash jarayonining aniq doirasi belgilanishi va mazkur jarayonlarning aniq qonunchilik asosida tartibga solinishiga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasi darajasi uning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash imkonini beruvchi axborot tizimlari orqali davlat organi tomonidan muntazam ravishda baholab borilishiga oid taklifdan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 42-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2023-yil 18-oktabrdagi 02-08-378-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetensiyasining uzluksiz ravishda oshirish tartiboti belgilanishiga va sohadagi turli qonunosti hujjatlar o‘zaro muvofiqlashuviga xizmat qilgan;

davlat xizmatchilari xizmat faoliyati davomida o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarishi, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste‘molchilikka yo‘l qo‘ymasligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloqining namunaviy qoidalari 9-bandi to‘rtinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 28-martdagi 12-15-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat faoliyati

davomidagi majburiyatlariga amal qilgan holda turli suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslikka xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi – ommaviy bayonot matni va mazmuni davlat siyosati yoki davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador bo'lmasa, ommaviy bayonot berishi mumkin emasligiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloqining namunaviy qoidalari 16-bandi to'rtinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 28-martdagi 12-15-23-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan ommaviy bayonot berish tartiblarini aniq belgilashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 1 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 7 ta (1 ta xorijiy nashrda) va to'plamlar tarkibida 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "***Davlat fuqarolik xizmatini o'tashning nazariy-huquqiy asoslari***" deb nomlangan birinchi bobida davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasi va uning yuridik tabiati, davlat fuqarolik xizmatini o'tash prinsiplari, davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "***Davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasi va uning yuridik tabiati***"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasini tahlil qilishda ko'plab huquqshunos olimlarning fikr va qarashlaridan foydalanib, ular bilan munozaraga kirishish asnosida davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasiga mualliflik ta'riflarini ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi tomonidan davlat fuqarolik xizmatini o'tash elementlarini ikki guruhga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Jumladan, davlat fuqarolik xizmatini o'tashdan oldingi munosabatlarga bog'liq elementlar va bevosita davlat fuqarolik xizmatini haqiqiy o'tash bilan bog'liq elementlar.

Davlat fuqarolik xizmatini o'tashdan oldingi munosabatlarga bog'liq elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

fuqaroning bo'sh davlat xizmati lavozimini egallash uchun tanlovda bevosita ishtirok etishi;

davlat organining kadrlar zaxirasiga qo'shilishi.

Bevosita davlat fuqarolik xizmatini haqiqiy o'tash bilan bog'liq elementlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

fuqarolarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining qo'shimcha kasbiy ta'limi;

davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan boshqa davlat xizmati lavozimlarini almashtirish;

davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining javobgarligi;

davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati;

davlat fuqarolik xizmatini tugatish;

davlat xizmatida individual xizmat nizolarini hal qilish.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayoni deganda davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ma'lum bir huquqiy natijaga erishishga qaratilgan davlat xizmati munosabatlarining vakolatli subyektlari tomonidan qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni izchil amalga oshirishning me'yoriy tartibga solinadigan qoidalarini tushunish mumkinligini asoslagan.

Dissertatsiyada davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayoni tartibga solinadigan munosabatlar mazmunidan kelib chiqib, munosabatlarni huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi quyidagi guruhlarga bo'lish mumkinligi asoslangan:

davlat fuqarolik xizmati lavozimini tartibga solish (davlat xizmati lavozimiga tayinlash; davlat xizmatchisini boshqa davlat xizmati lavozimiga almashtirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish va u bilan ishlash; davlat xizmati lavozimidan ozod etish);

davlat xizmatchilarining kasbiy darajasini va ularning kasbiy xizmat faoliyati natijalarini baholash (davlat xizmatchilarining malaka imtihoni va attestatsiyasi);

davlat fuqarolik xizmatchilarining qo'shimcha kasbiy ta'limi (davlat xizmatchilarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish);

korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini amalga oshirish (davlat xizmatchilari tomonidan cheklovlar, davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi nizolarni rasmiy tarzda yuritish va hal etish talablariga rioya etish, davlat xizmatchilariga ularning oila a'zolarining daromadlari, shuningdek, mulkiy majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish, davlat xizmatchilarining xarajatlari to'g'risida, shuningdek, uning oila a'zolarining xarajatlari to'g'risida ma'lumot berish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni keltirib chiqarish yuzasidan murojaatlar to'g'risida xabar berish);

davlat fuqarolik xizmatchilarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish (davlat xizmatchilarining shaxsiy fayllari va mehnat daftarchalarini yuritish; davlat xizmatchilarining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxsga o'tkazish; davlat xizmatchilari reyestrini yuritish);

ish vaqti va dam olish vaqti rejimiga rioya qilish (qisqartirilgan va to'liqsiz ish vaqtini belgilash, asosiy haq to'lanadigan ta'til va qo'shimcha haq to'lanadigan ta'til berish);

davlat fuqarolik xizmatchilariga haq to'lash (davlat xizmatchisining ish haqini, shuningdek, oylik va boshqa qo'shimcha to'lovlarni belgilash; yagona ish haqini belgilash; davlat xizmatchilariga haq to'lashning maxsus tartibini belgilash, unda ish haqini kasbiy samaradorlik va samaradorlik ko'rsatkichlariga qarab amalga oshirish);

davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy va qo'shimcha davlat kafolatlarini amalga oshirish (rasmiy xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash; davlat xizmatchisi va uning oila a'zolarini boshqa joyga ko'chirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash; davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ofisda turar joy bilan ta'minlash; transport xizmatlari, shuningdek, davlat xizmatchilarining xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, rasmiy ravishda shaxsiy transportdan foydalanganlik uchun kompensatsiya va undan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash; turar joy binolarini sotib olish uchun bir martalik subsidiya berish va boshqalar);

davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish, taqdirlash va xizmat intizomi (davlat xizmati qonun hujjatlarida nazarda tutilgan rag'batlantirish, mukofotlar, shuningdek, intizomiy jazo turlarini qo'llash, rasmiy tekshiruvlar o'tkazish, intizomiy jazolarni olib tashlash, cheklovlar va taqiqlarga rioya qilmaslik uchun jazo tayinlash, oldini olish yoki hal qilish uchun manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida belgilangan vazifalarni bajarmaslik);

davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va nazoratni amalga oshirish (davlat nazorati, shuningdek, davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan idoraviy va idoralararo nazorat);

shaxsiy xizmat nizolarini ko'rib chiqish uchun davlat organining komissiyasini shakllantirish.

Dissertant tomonidan tadqiqotda davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasini aniqlashda uning elementlari, protsessual xususiyatlari, tashkiliy va funksional xususiyatlarini tahlil qilgan holda, quyidagicha ta'rif berilgan:

“Davlat fuqarolik xizmatini o'tash – davlat fuqarolik xizmatchisi professional rasmiy faoliyat asosida xizmat lavozimiga tayinlangan paytdan boshlab yuzaga keladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish va bo'shatish bilan tugatiladigan jarayondir”.

Dissertant tomonidan tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmati prinsiplari davlat fuqarolik xizmatini o'tashning asosiy qoidalarini belgilashi, davlat fuqarolik xizmatini o'tash prinsiplari davlat xizmatini tashkil etish va o'tish bilan bog'liq qat'iy normativ asosiy qoidalar ekanligi, davlat xizmati munosabatlarini barqaror qilishi, bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatining prinsiplari davlat

xizmatchisining huquqiy maqomiga barqarorlik berishi, ayni prinsiplar asosida mazkur sohadagi davlat siyosatini ham anglab olish mumkinligi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi davlat fuqarolik xizmatini o'tash prinsiplarini konstitutsiyaviy va tashkiliy prinsiplarga ajratish lozimligini ta'kidlagan. Konstitutsiyaviy prinsiplarga konstitutsiya va qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati va davlat manfaatlariga xizmat qilish, inson va fuqarolik huquqlari hamda erkinliklarining ustuvorligi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini ajratishdan qat'i nazar davlat fuqarolik xizmati tizimining birligi, vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik, adolatlilik, halollik va xolislik hamda fuqarolarning davlat xizmatiga teng kirish huquqi kabi prinsiplarni kiritish lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqotchining qo'shimcha qilishicha, tashkiliy prinsiplarga davlat fuqarolik xizmatchilarining hisobdorligi va javobgarligi, davlat xizmatiga qo'yiladigan asosiy talablarning birligi, davlat fuqarolik xizmatchilarining professionalligi va malakasi, davlat fuqarolik xizmatining barqarorligi, davlat fuqarolik xizmatining samaradorligi, teng ishlarni bajarish uchun teng ish haqi, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, korrupsiyaga toqatsizlik, davlat fuqarolik xizmati haqida ma'lumotlarning mavjudligi, davlat fuqarolik xizmatchilarini himoya qilish, fuqarolik jamiyati uchun ochiqlik, ijtimoiy ta'minot va davlat fuqarolik xizmatchilarini tayyorlashning uzluksizligi prinsiplarini kiritish mumkin.

Dissertant tomonidan davlat fuqarolik xizmatini o'tashda vatanparvarlik mezonlaridan kelib chiqqan holda va davlat fuqarolik xizmatini o'tashning vatanparvarlik prinsipini qo'llash mexanizmini shakllantirish nuqtayi nazaridan mamlakatimizda "Davlatga xiyonat to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "***Davlat fuqarolik xizmatini o'tashning ma'muriy-huquqiy jihatlari***" deb nomlanib, unda davlat fuqarolik xizmatiga kirish davlat fuqarolik xizmatini o'tashning bosqichi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, davlat fuqarolik xizmatida martaba darajasini berishning o'ziga xos xususiyatlari, davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish tartiboti kabi masalalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning "***Davlat fuqarolik xizmatiga kirish davlat fuqarolik xizmatini o'tashning bosqichi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari***" deb nomlangan birinchi paragrafida, dissertant "davlat fuqarolik xizmatida ishga qabul qilishning kasbga oid sifatlari hamda alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholashga asoslangan ochiq tanlov mexanizmlari va uning huquqiy asoslari mavjud emas" degan g'oyani ilgari suradi. Natijada ishga qabul qilishda haligacha tanish-bilishchilik yoki boshqacha tarzda manfaatga asoslangan korrupsiyaviy xavf yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Mazkur tizimning mavjud emasligi vakant lavozimlarni o'z vaqtida to'ldirish ham eng munosib kadrlarni tanlab olish imkonini bermayapti. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarning raqamlashtirilmaganligi hujjatlarni topshirish bilan bog'liq byurokratik yuklamalarning oshishiga hamda vakant lavozimlarning o'z vaqtida e'lon qilib borilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Dissertant tomonidan tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmatchisining martaba darajasi amaldagi qonunchilik muammolariga bog'langan holda tadqiq qilinib, ushbu tushunchaga davlat fuqarolik xizmatchisining lavozimi, uning kasbiy darajasi,

ish staji va uning kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga mos keladigan hamda belgilangan tartibda va baholash mezonlari asosida shaxsan tayinlangan daraja deb ta'rif berilgan. Shuningdek, fuqarolik xizmatida martaba darajasining asosiy belgilari ajratib ko'rsatilgan.

Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan Davlat fuqarolik xizmatchilariga martaba darajalarini berish tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqish lozimligi taklifi berilib, mazkur nizomda davlat fuqarolik xizmatchisiga martaba darajasini berishning asosiy tushunchalari, davlat fuqarolik xizmatchilarining martaba darajalari tasnifi va davlat fuqarolik xizmatchilariga martaba darajalarini berish protsedurasini belgilash lozimligi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, tadqiqot ishida davlat fuqarolik xizmatida attestatsiya tartiboti tahlil qilinib, ushbu tartibotning turlari va qonunchilik asoslari amaldagi qonunchilikdagi mavjud muammolarga bog'langan holda tadqiq qilingan. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadigan Davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqish lozimligi asoslantirib berilgan. Mazkur nizomda davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish protsedurasi belgilab qo'yilishi kerakligi va attestatsiyadan o'tkazishning tayyorlov, bevosita attestatsiya va attestatsiya natijalari asosida qaror qabul qilish protsedurasi belgilab qo'yilishi lozimligi taklif etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi ***“Davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari”*** deb nomlanib, unda xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatini o'tashning o'ziga xususiyatlari va davlat fuqarolik xizmatini o'tashning huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Xorijiy mamlakatlarda davlat fuqarolik xizmatini o'tashning o'ziga xususiyatlari”* deb nomlangan.

Dissertant tomonidan ushbu paragrafda davlat fuqarolik xizmatini o'tash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va soha qonunchiligini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Jumladan, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi ochiq va yopiq modelga bo'lgan holda tahlil qilingan.

Dissertatsiyada davlat fuqarolik xizmatini o'tashning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari davlat fuqarolik xizmatini uzoq istiqbolli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish va davlat fuqarolik xizmatida kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos yo'nalishi sifatida amaldagi davlat fuqarolik xizmati holatining har tomonlama tahlili, ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan tub o'zgarishlarning asosiy tamoyillari, milliy shart-sharoitlarga mos bo'lgan keng ko'lamli va tarkibiy islohotlarni nazarda tutuvchi davlat Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozimligi taklif qilingan.

Dissertatsiyada o'z navbatida, davlat organlari va tashkilotlarning kadrlar bo'limini Inson resurslarini boshqarish tarkibiy bo'linmasiga (HR-xizmat) to'liq

transformatsiya qilish bo'yicha tegishli takliflar ilgari surilgan.

Muallif kadrlar zaxirasini shakllantirish, rivojlantirish va foydalanish bosqichiga asoslangan milliy tizim ishlab chiqish lozimligini taklif qilgan.

Tadqiqotchi tomonidan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya davlatlari misolida kadrlar zaxirasini shakllantirish, kadrlar zaxirasini rivojlantirish, kadrlar zaxirasidan foydalanish, iste'dodlarni boshqarish va kadrlar zaxirasidan foydalanish kabi xorijiy mamlakatlarning davlat xizmati tizimidagi zaxiralar bilan ishlashning zarurligini va buni mamlakatimiz kadrlar tizimiga tatbiq etish lozimligi asoslantirilgan.

## XULOSA

Tadqiqot davomida davlat fuqarolik xizmatini o'tash yuzasidan milliy va xorijiy mamlakatlarning nazariy va amaliy tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy taklif va xulosalar:**

1. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

**davlat fuqarolik xizmatini o'tash** – davlat fuqarolik xizmatchisi professional rasmiy faoliyat asosida xizmat lavozimiga tayinlangan paytdan boshlab yuzaga keladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimidan ozod qilish va bo'shatish bilan tugatiladigan jarayon;

**lavozim** – lavozim davlat organi tashkiliy tuzilishining bir qismi bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan, davlat xizmatchisi tomonidan amalga oshiriladigan davlat vakolatining bir qismi;

**davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayoni** – davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ma'lum bir huquqiy natijaga erishishga qaratilgan davlat xizmati munosabatlarining vakolatli subyektlari tomonidan qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni izchil amalga oshirish bo'yicha me'yoriy tartibga solinadigan qoidalar;

**xizmat shartnomasi** – davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilingan xizmatchi bilan davlat organi o'rtasida davlat xizmati o'tash shartlari va muddatlarini, davlat fuqarolik xizmatchisining huquq va majburiyatlarini belgilaydigan qoidalar tizimi;

**davlat fuqarolik xizmatchisining martaba darajasi** – davlat fuqarolik xizmatchisining lavozimi, uning kasbiy darajasi, ish staji va uning kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga mos keladigan hamda belgilangan tartibda va baholash mezonlari asosida shaxsan tayinlangan daraja;

**davlat fuqarolik xizmatida attestatsiya** – davlat fuqarolik xizmatchisining davlat xizmati lavozimiga muvofiqligini aniqlash uchun davlat organining attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan davriy ma'muriy protsedura, u attestatsiya davrida erishgan kasbiy faoliyati natijalarini baholash asosida, uning natijalariga ko'ra qonuniy ravishda belgilangan qaror qabul qilinadigan, shu jumladan, davlat xizmatchisini rasmiy lavozimga ko'tarishga qaratilgan yuqori davlat xizmati lavozimiga almashtirish imkoniyatini yaratish.

2. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash elementlarini davlat fuqarolik xizmatini o'tashdan oldingi munosabatlarga bog'liq elementlar va bevosita davlat fuqarolik xizmatini haqiqiy o'tash bilan bog'liq elementlarga bo'lgan holda tahlil qilindi. Bunda davlat fuqarolik xizmatini o'tashdan oldingi munosabatlarga fuqaroning bo'sh davlat xizmati lavozimini egallash uchun tanlovda bevosita ishtirok etishi va davlat organining kadrlar zaxirasiga qo'shilishi kiritilgan bo'lsa, bevosita davlat fuqarolik xizmatini haqiqiy o'tash bilan bog'liq elementlarga fuqarolarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish, davlat fuqarolik xizmatchilarining qo'shimcha kasbiy ta'limi, davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan boshqa davlat xizmati lavozimlarini almashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining javobgarligi, davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati, davlat fuqarolik xizmatini tugatish va davlat xizmatida individual xizmat nizolarini hal qilish kiritildi.

3. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayoni tartibga solinadigan munosabatlar mazmunidan kelib chiqib, munosabatlarni huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi quyidagi guruhlariga bo'lib chiqildi: davlat fuqarolik xizmati lavozimini tartibga solish; davlat xizmatchilarining kasbiy darajasi va ularning kasbiy xizmat faoliyati natijalarini baholash; davlat fuqarolik xizmatchilarining qo'shimcha kasbiy ta'limi; korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlarini amalga oshirish; davlat fuqarolik xizmatchilarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish; ish vaqti va dam olish vaqti rejimiga rioya qilish; davlat fuqarolik xizmatchilariga haq to'lash; davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy va qo'shimcha davlat kafolatlarini amalga oshirish; davlat fuqarolik xizmatida rag'batlantirish, taqdirlash va xizmat intizomi; davlat xizmati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va nazoratni amalga oshirish; shaxsiy xizmat nizolarini ko'rib chiqish uchun davlat organining komissiyasini shakllantirish.

4. Davlat fuqarolik xizmatini o'tashda vatanparvarlik mezonlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, shaxsiy manfaatdorlikdan jamoat manfaatlarini ustun qo'yish va o'z vakolati doirasidagi boshqa tashkilotlar ma'lumotlaridan foydalanmaslikni kiritish lozimligi asoslantirib berildi.

